
BAYROG'IM - FAXRIM!



BAYROG'IM - FAXRIM!

O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ining qabul qilinishiga 33-yil to'lganligi munosabati bilan tumanimizning barcha hududlarida turli xil tadbirlar tashkil etilib, o'tkazilmoqda.

Yangiariq mahallasidagi 30-sonli bollar musiqa va san'at maktabida sanaga bag'ishlab tantanali tadbir o'tkazildi. Tadbirda ishtirok etgan tuman hokimi o'rinbosari Ilhomjon Abdumajidov barcha ishtirokchilarni bayram munosabati bilan tabriklab, mustaqillikning ramzlaridan biri bo'lgan davlat bayrog'i haqida gapirib, bayroq milliy davlatchiligimizda alohida o'rin tutishi, Davlat Bayrog'i xalqning, millatning faxri va iftixori ekanligini alohida ta'kidladi.

Tantanali tadbirda maktab o'quvchilari, yoshlar ishtirok etishdi. Tadbirda musiqa va san'at maktabi hamda Guliston mahallasidagi 9-sonli UO'T maktabi yosh iste'dodlari tomonidan Vatan va uning ramzlarini ifoda va tarannum etuvchi she'rlar ijro etildi.

Tadbir oxirida sportning turli jabhalarida g'oliblikni qo'lga kiritib, O'zbekiston bayrog'ini boshi uzra ko'targan yosh sportchilarga tashakkurnoma va qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-18 16:57:12